



**QADIMGI JAMIYATLAR SIYOSIY TUZILMALARINING
ETNOGRAFIK TAHLILI
ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОЛИТИЧЕСКИХ СТРУКТУР
ДРЕВНИХ ОБЩЕСТВ
ETHNOGRAPHIC ANALYSIS OF THE POLITICAL STRUCTURES
OF ANCIENT SOCIETIES**

Muallif: O'zJOKU Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti, Siyosatshunoslik ta'lif yo'naliши, 38-24 guruh talabasi Yorbekov Og`abek

Автор: студент группы 38-24 направления «Политология» факультета международных отношений и социально-гуманитарных наук УЖМКУз -

Ёрбеков Огабек

Author: UzJMCU Faculty of International Relations and Social-Humanitarian Sciences Student of the Political Science , Group 38-24

Yorbekov Ogabek

Annotatsiya. Insoniyat tarixida jamiyatlar o'z taraqqiyoti davomida siyosiy tuzilmalarini o'zgartirgan va bu jarayon davriy ravishda murakkablashib borgan. Siyosiy tuzilmalar dastavval sodda va o'z davri uchun mukammal bo'lgan bo'lsa, keyinchalik o'zida ba'zi sifatlarni aks ettirgan. Siyosiy tizimlar ibtidosida oddiy urug` va qabila boshqaruvi shaklida namoyon bo`ldi va vaqt o`tishi bilan ular jamoa, jamiyat, shahar-davlat va davlat shaklida takomillashib bordi. Bu jarayonni bevosita tahlil qilish uchun mavjud siyosiy tizimlarni etnografik yondashuv asosida tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ushbu maqolada qadimgi jamiyatlarning siyosiy tuzilmalari va ularning shakllanish jarayoni etnografik yondashuv asosida tahlil qilingan.

Аннотация. В истории человечества общества на протяжении своего развития изменяли свои политические структуры, и этот процесс со временем становился всё более сложным. Политические структуры изначально были простыми и для своего времени считались совершенными, но со временем они



начали отражать определённые качественные характеристики. В начале своего формирования политические системы проявлялись в виде простого родоплеменного управления, а со временем совершенствовались, превращаясь в общины, общества, город-государства и государства. Для непосредственного анализа этого процесса важно рассматривать существующие политические системы с этнографическим подходом. Поэтому в данной статье политические структуры древних обществ и процесс их формирования рассматриваются на основе этнографического анализа.

Abstract. *Throughout human history, societies have altered their political structures during the course of their development, and this process has progressively become more complex over time. Political structures were initially simple and considered perfect for their era, but later began to reflect certain qualitative features. At the early stage of their formation, political systems were expressed in the form of simple clan and tribal governance, and over time they evolved into communities, societies, city-states, and fully-fledged states. In order to directly analyze this process, it is important to study existing political systems from an ethnographic perspective. Therefore, this article analyzes the political structures of ancient societies and their formation process based on an ethnographic approach.*

Kalit so`zlar: qadimgi jamiyat, siyosiy tizim, siyosiy tuzilma, etnografiya, urug`-qabila, shahar-davlat, davlat.

Ключевые слова: древнее общество, политическая система, политическая структура, этнография, род-племя, город-государство, государство.

Keywords: *ancient society, political system, political structure, ethnography, clan-tribe, city-state, state.*

Qadimgi jamiyatlarda siyosiy boshqaruvning dastlabki shakli urug‘ va qabila tizimiga asoslangan bo‘lib, bu tizim o‘zining sodda va tabiiy tuzilishi bilan ajralib turgan. Urug‘ va qabilalar ijtimoiy barqarorlikni saqlash, resurslarni taqsimlash, nizolarni hal etish va tashqi tahdidlarga qarshi himoya qilish kabi funksiyalarni



bajargan. Etnografik tadqiqotlarda qayd etilishicha, ushbu jamiyatlarda hokimiyat ko‘proq ma’naviy, tajriba va jasoratga asoslangan bo‘lgan. Oqsoqollar kengashi, urug‘ sardori yoki harbiy yetakchi qabila ichida muhim siyosiy mavqega ega bo‘lgan (To‘xtashev, 2011).

Bu paytdagi siyosiy tizimda shaxs, uning avtoriteti, kelib chiqishi kabi omillar muhim rol o‘ynagan. Urug‘-qabila tuzilmasi rivojlanishi bilan patriarxal boshqaruva shakllana boshladi. Bu bosqichda hokimiyat nasldan-naslga o‘tuvchi tarzda, oilaning erkak vakili — patriarch tomonidan amalga oshirilgan. Mulkchilik tushunchasi shakllana boshlashi bilan siyosiy boshqaruvda iqtisodiy manfaatlar asosiy o‘ringa chiqdi (Morgan L.G. (1935).). Tarixdan ma’lumki, kishilik jamiyatida erkaklarning ro`li ortib borishi bilan, ularning boshqaruvdagi hissasi ham mutanosib ravishda oshib borgan. Oldinlari qabilaga obro`-e’tiborli ayol boshchilik qilgan bo`lsa, madaniy, iqtisodiy va qisman siyosiy rivojlanish natijasida holat asta-sekin o’zgargan. Endilikda urug` ham ota tomonidan belgilanib, siyosiy tizimdagi muhim bo‘lgan barcha ishlar erkaklar zimmasiga tushgan. Shu orqali erkaklar qabila himoyasi, uning moddiy ta’minoti kabi ishlarga javobgar bo‘lgan. Hokimiyatning bu shakli keyinchalik dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Dastlabki davlatlar shakllanishi jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy iyerarxiyaning murakkablashuvi bilan bog‘liq. Qadimgi Mesopotamiya, Misr sivilizatsiyalarida siyosiy tizimlar markazlashgan hokimiyat asosida tashkil etilgan. Davlat hokimiyati shoh, podshoh yoki monarx qo‘lida jamlangan, qonunlar yozma shaklda mustahkamlangan (Klyashtorniy S. G., Sultanov T. I. (2001). Qadimgi Yunonistonda esa holat birmuncha farq qilib, ilk bosqichda monarxiya, so’ngra aristokratiya, oligarxiya va demokratiya kabi siyosiy tizimlar faoliyat yuritgan.

Dastavval qadimgi Mesopotamiya siyosiy tizimlarini tahlil qiladigan bo’lsak, jamiyat asosan podshoh va zodagonlar, erkin fuqarolar va qullarga bo‘lingan. Bu tizimda har bir tabaqa o‘zining huquqlari va majburiyatları bilan ajralib turar, qonunlar bu huquqlarni aniq belgilab qo‘ygan. Davlatdagi yozma qonun “Xammurapi qonunlari” bu siyosiy tizimning asosi bo‘lgan. Mesopotamiya jamiyatida hokimiyat shakli asosan shahar-davlatlar ko‘rinishida tashkil topgan bo‘lib, har bir shahar o‘ziga



xos mustaqil siyosiy birlik sanalgan. Har bir shaharning o‘z hukmdori, qo‘sini, sud tizimi va diniy rahbarlari mavjud edi (Kramer, S. N. (1963). Shaharlarni boshqaruvchi shaxslar asosan "lugal" va "ensi" deb atalgan. "Lugal" so‘zi so‘zma-so‘z "katta odam" yoki "hukmdor" degan ma’noni anglatib, bu shaxs siyosiy, harbiy va diniy hokimiyatni o‘z qo‘lida jamlagan bo‘lgan. "Ensi" esa ko‘proq diniy lavozim sifatida shakllangan bo‘lib, shahar xudosi nomidan hokimiyatni amalga oshiruvchi rahbar sanalgan (Bottero, J. 2001). Mesopotamiyada hokimiyat va din bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Har bir shahar o‘zining homiy xudosiga ega bo‘lib, hukmdorlar o‘zlarini ana shu xudolarning yer yuzidagi vakili sifatida ko‘rsatishgan. Xudolar ishonchi va roziligesiz hokimiyat qonuniy hisoblanmagan. Shaharlarning asosiy maqbaralari hukmdorlar tomonidan qurilgan, diniy marosimlar esa hokimiyat obro‘sini mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qilgan. Jamiyat diniy jihatdan politeistik bo‘lib, ular tabiat hodisalari va ijtimoiy tartibotlarni ilohiylashtirish orqali jamiyat barqarorligini saqlashga intilgan. Hokimiyat harbiy kuch orqali qo‘llab-quvvatlangan. Shaharlar ko‘pincha o‘zaro urush olib borishgan va bu jarayonda hukmdorlar armiya bosh qo‘mondoni sifatida faol ishtirok etganlar. Harbiy kuch va zaxiralar davlat hokimiyatining barqarorligini ta’minlagan asosiy omillardan biri hisoblangan. Mesopotamiyada hokimiyat iqtisodiy boshqaruvi bilan ham chambarchas bog‘liq edi. Daryolar toshqini natijasida sug‘orish tizimlari va yerlarni boshqarish hukmdorning bevosita nazorati ostida bo‘lgan. Bu esa hokimiyatni yanada mustahkamlab, shaharlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan Aholining qonunlarga og`ishmasdan bo`ysunishining asosiy sababi shunda ediki, qonunlar shunchaki majburiyat emas, balki xudoning xohish-irodasi sifatida talqin etilgan. Mesopotamiya aholisi kuchli markazlashgan hokimiyat davrida turli ommaviy ishlarga ham safarbar qilingan. Asosan qullar va kamdan-kam hollarda fuqarolar bu ishlarga jalb qilingan. Bu orqali shuni bilishimiz mumkinki qadimgi Mesopotamiyada davlat markaziy apparati kuchliligi va majburlash kuchiga ega ekanligidir. Boshqaruvning bu shakli tiranlik, qisman despotik mayllarni o‘zida mujassam etganiga qaramasdan, davlat boshqaruvi sifatida o‘zini oqlay olgan.



Qadimgi Misr siyosiy tuzilmalari o`zida diniy munosabatlarni ko`proq qamrab olganligi bilan boshqalaridan farq qiladi. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi insoniyat tarixidagi eng qadimiy va rivojlangan jamiyatlardan biri hisoblanadi. Uning geografik joylashuvi — Nil daryosi atrofida barpo bo`lgan bu jamiyat, o`zining siyosiy boshqaruvi, diniy marosimlari, ijtimoiy tuzilishi va iqtisodiy hayoti bilan o`ziga xos etnografik xususiyatlarga ega edi. Qadimgi Misr jamiyatida hokimiyat shakli teokratik monarxiya edi. Davlat boshida fir`avn turardi. Fir`avn qadimgi misrliklar tasavvurida nafaqat siyosiy hokimiyatni, balki diniy hokimiyatni ham o`z qo`lida jamlagan mutlaq hukmdor bo`lgan. U xudoning yerdagi vakili sifatida e`tirof etilgan va butun jamiyat unga sig`ingan. Fir`avnning boshqaruv tizimi vertikal iyerarxiya shaklida tashkil qilingan bo`lib, uning asosida fir`avndan keyin vazirlar, nomlar boshliqlari, harbiy qo`mondonlar va ruhoniylar turardi. Oddiy aholi, dehqonlar va qullar esa jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlari hisoblangan. Qadimgi Misr jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi qat`iy tabaqalashtirilgan edi. Jamiyatning eng yuqori pog`onasida fir`avn turar, undan keyin zodagonlar va ruhoniylar, keyingi bosqichda hunarmandlar, savdogarlar va dehqonlar, eng quyi tabaqada esa qullar joylashgan edi. Bu tabaqaviy tuzilma jamiyatdagi har bir guruhning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab bergen. Ruhoniylar diniy marosimlarni tashkil qilgan, fir`avn esa siyosiy va diniy barqarorlikni saqlash vazifasini bajargan. Fir`avn qadimgi Misr jamiyatida ilohiy shaxs sifatida e`tirof etilgan. U Horus xudosining yer yuzidagi timsoli va xudolarning erdag`i vakili deb hisoblangan. Shuning uchun fir`avn hukmronligi faqat siyosiy emas, balki diniy hokimiyat bilan ham mustahkamlangan. Fir`avn xudolarga atab maqbaralar qurdirgan va o`zi ham ibodatlarning asosiy ishtirokchisi bo`lgan (Bredli P. 2003).

Misr jamiyatida din hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan edi. Misrliklarning e`tiqodlari ularning kundalik hayoti, siyosati, san`ati va hatto iqtisodiy faoliyatiga ham chuqur ta`sir ko`rsatgan. Ularning diniy qarashlari ko`pxudolik asosiga qurilgan bo`lib, har bir xudo va ma`buda tabiat hodisalari, inson hayoti va jamiyatdagi turli jarayonlarni boshqaradi deb ishonilgan. Diniy e`tiqod nafaqat marosimlar va ibodatlarda, balki jamiyat tartibida, qonunlarda va siyosiy hokimiyatda ham asosiy o`rin tutgan. Qadimgi Misr diniy amaliyotlari kundalik hayotning ajralmas qismi



bo'lgan. Har bir xudo uchun maxsus ibodatxonalar qurilgan va har kuni ruhoniylar tomonidan xudolarni xursand qilish uchun marosimlar o'tkazilgan. Xususan, qurbanliklar, fotiha va duolar o'qish, marhumlarni mumiyolash va ularni abadiy hayotga tayyorlash qadimgi misrliklar uchun hayotning ajralmas qismi edi. Ruhoniylar jamiyatda katta hurmat va hokimiyatga ega bo'lgan, ular diniy marosimlarni boshqarish, kalendar asosida yil tartibini belgilash va diniy kitoblarni yozish bilan shug'ullanганлар (I.V. Kuzishin 2001). Qadimgi Misrliklarning diniy qarashida o'lim — hayotning yakuni emas, balki uning yangi bosqichi sifatida qaralgan. Ular marhum ruhining abadiy hayotga o'tishi uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishgan. Misrliklar siyosiy tiziming asosiy jihatı – din hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi hisoblanadi.

Qadimgi Yunoniston siyosiy tizimi esa nisbatan murakkab shaklga ega bo'lib, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin egallagan qadimiy jamiyatlardan biri sanaladi. Bu jamiyat taxminan miloddan avvalgi II mingyillikdan boshlab shakllanib, milodiy I asrga qadar davom etgan. Yunoniston jamiyatı o'zining murakkab siyosiy, ijtimoiy va madaniy tuzilishi bilan ajralib turgan. Uning rivojlanishi etnografik jihatdan ko'plab qirralarga ega bo'lib, jamiyatning turmush tarzi, qadriyatlari, diniy e'tiqodi va ijtimoiy tuzilishi bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Qadimgi Yunoniston jamiyatı murakkab va qatlamlı ijtimoiy tizimga ega bo'lgan. Bu jamiyat asosida erkinlik, fuqarolik burchi va ijtimoiy tengsizlik tamoyillari bir vaqtning o'zida mavjud edi. Yunon jamiyatining eng muhim va nufuzli qatlamini erkin fuqarolar tashkil etgan. Faqat shu toifadagi kishilar siyosiy huquqlarga ega bo'lib, shahar-davlatning qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok eta olganlar. Erkin fuqarolar orasida ham tabaqalanish mavjud bo`lib, Aristokratlar — qadimdan hukmronlik qilgan, yer va mulkka ega bo'lgan boy qatlam. Ular ko'pincha siyosiy lavozimlarni egallagan va harbiy xizmatda yuksak mansablarga ko'tarilgan. O'rta sinf fuqarolar — hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar, kemasozlar va dengizchilardan iborat qatlam. Ular o'z mehnati bilan yashagan, lekin siyosiy ta'siri aristokratlarga nisbatan cheklangan.

Pastki sinf erkin fuqarolar — ko'proq dehqonchilik, kichik hunarmandchilik va ijarachilik bilan shug'ullanib, o'z mulkiga ega bo'lмаган, lekin fuqarolik maqomiga



ega bo‘lganlar. Erkin fuqarolar harbiy xizmat, soliq to‘lash, siyosiy hayotda qatnashish va jamoat ishlari bilan shug‘ullanish majburiyatiga ega edi. Yunon polislarida yashagan, lekin u yerdagi fuqaro maqomiga ega bo‘lmagan boshqa shahar yoki davlatlardan kelgan aholi meteklar deb atalgan. Ular asosan hunarmandchilik, savdo va xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullangan. Meteklar jamiyatning iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, siyosiy huquqlardan mahrum bo‘lganlar. Ularga shahar majlisida ovoz berish, yer sotib olish va davlat lavozimlarini egallash taqiqlangan edi.

Meteklar o‘zining himoyasi uchun maxsus homiy tanlashga majbur bo‘lgan, soliq to‘lagan va harbiy xizmatga chaqirilgan. Qadimgi Yunoniston jamiyatining eng quyi va ko‘p sonli qatlamini qullar tashkil etgan. Qullar asosan urush asirlari, qarzdorlik tufayli qullikka tushgan shaxslar yoki tug‘ma qullardan iborat edi. Ular yerda ishslash, uy xo‘jaligi, konlarda mehnat qilish, ustaxonalarda va davlat qurilishlarida og‘ir jismoniy mehnat bilan shug‘ullanganlar.

Qullar jamiyat hayotining barcha sohalarida mehnat qilgan bo‘lsa-da, ularning hech qanday siyosiy, huquqiy va shaxsiy erkinligi bo‘lmagan. Shu bilan birga, ba’zi hollarda qullarga erkinlik berish amaliyoti ham mavjud bo‘lib, ular erkinlikka chiqqach metek maqomini olganlar. Davlat boshqaruvi ham jamiyat tarkibiga mos bo‘lgan holda murakkab tashkil topgan. Qadimgi Yunoniston tarixida hokimiyat tizimi ko‘p bosqichli va murakkab shakllarda rivojlangan. Bu hudud yagona davlat sifatida emas, balki mustaqil va alohida shahar-davlatlar - “polislar” ko‘rinishida tashkil topgan edi. Har bir polis o‘ziga xos siyosiy boshqaruv shakliga, qonunlarga va hokimiyat organlariga ega bo‘lgan. Hokimiyat shakli polislarning tarixiy rivojlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasiga qarab farq qilgan (<https://plato.stanford.edu>). Yunon polislarining ilk rivojlanish davrida monarxiya keng tarqalgan edi. Bu tizimda hokimiyat bir shaxs — shoh qo‘lida to‘liq to‘plangan bo‘lgan. Shoh diniy, harbiy va siyosiy rahbar sifatida davlatni boshqargan. Monarxiya asosan miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda Yunonistonning ko‘plab polislarida hukmron bo‘lgan. Monarxiyadan so‘ng hokimiyat boy va nufuzli zodagonlar qo‘liga o‘tdi. Bu davrda hokimiyat aristokratlar — ya’ni, yirik yer egalari, qadimiy sulolalar vakillari qo‘lida to‘plangan. Aristokratiya davrida siyosiy qarorlar aristokratik kengashlar tomonidan qabul qilingan, oddiy xalq siyosiy



hayotdan chetda qolgan. Ba’zi polislarda aristokratiya va demokratiya o‘rtasidagi o‘tish davrida hokimiyat oz sonli boy fuqarolar — savdogarlar va yer egalari qo‘lida to‘plangan. Bu tizim oligarxiya deb atalgan. Oligarxik boshqaruvda hokimiyat faqat iqtisodiy jihatdan qudratli kichik guruh manfaatlariga xizmat qilgan. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda ko‘plab yunon polislarda siyosiy inqiroz va ijtimoiy qaramaqarshiliklar natijasida hokimiyatni ko‘pincha harbiy kuch bilan egallagan shaxslar — tiranlar qo‘lga kiritgan. Tiranlar boshqaruvi ko‘pincha avtoritar xarakterga ega bo‘lgan. Ba’zi tiranlar xalqning manfaatlarini himoya qilgan, lekin ko‘pchiligi o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun kuch ishlatgan.

Qadimgi Yunonistonning eng yuksak siyosiy shakllaridan biri demokratiyadir. Ayniqsa, Afina polisida o‘ziga xos to`laqonli demokratiya shakllangan. Afinadagi demokratiya ko‘plab yunon polislardan farq qilgan va xalqni boshqarishda katta o‘zgarishlarga olib kelgan. Bu tizimda, erkin fuqarolar o‘z huquqlariga ega bo‘lib, siyosiy qarorlar qabul qilishda qatnashgan. Jarayonda bevosita fuqarolar uchun yaratilgan shart-sharoitlar ham muhim sanalib, davlat boshqaruvchilari bo‘lgan strateglar ham bunga katta ahamiyat bergen.

Qadimgi jamiyatlarning siyosiy tuzilmalarini etnografik tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, bu davrlar davlat boshqaruvi, ijtimoiy qatlamlashuv va diniy e’tiqodlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Har bir qadimgi sivilizatsiya o‘ziga xos boshqaruv shakllariga ega bo‘lsa-da, ularning asosiy maqsadi jamiyatda tartib va barqarorlikni saqlash, ijtimoiy rollarni taqsimlash va hukmdor hokimiyatini mustahkamlashdan iborat edi. Qadimgi Misrdagi hokimiyat va fir’avnlik instituti, Mesopotamiyadagi shahar-davlat siyosiy tuzilmasi va Qadimgi Yunonistondagi, ayniqsa Afinadagi demokratiya shaklidagi davlat boshqaruvi singari siyosiy tuzilmalarda fuqaro va xalqlarning bevosita yoki bilvosita ishtiroki jamiyatning rivoji, farovonligi va siyosiy o’sish uchun xizmat qilgan. Shu tarzda, qadimgi jamiyatlarning siyosiy tuzilmalari nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlardan, balki madaniy qadriyatlar, diniy e’tiqodlar va etnik xususiyatlardan ham kelib chiqqan. Etnografik tahlil shuni ko‘rsatadiki, qadimgi sivilizatsiyalar o‘zlarining tarixiy rivojlanishida



hukmron qatlam va oddiy aholi o‘rtasidagi ijtimoiy va siyosiy chegaralarni aniq belgilab, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy tartibni saqlab turishga intilganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To‘xtashev Sh. S. (2011). *Etnografiya asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Klyashtorniy S. G., Sultanov T. I. (2001). Yevroosiyo dashtlarining davlatlari va xalqlari. Sankt-Peterburg: Peterburg Sharqshunoslik nashriyoti.
3. Morgan L. G. (1935). Qadimgi jamiyat. Moskva: Sotsekgiz nashriyoti.
4. Kramer, S. N. (1963). Qadimgi Mesopotamiyada tarix shunday boshlandi. London: University of Chicago Press.
5. Bottero, J. (2001). Mesopotamiya: Qadimgi Sharq madaniyati.
6. Bredli P. (2003). Qadimgi Misr sivilizatsiyasi. Moskva: Veche nashriyoti.
7. I.V. Kuzishin (2001). Qadimgi Sharq tarixi. Moskva: Oliy maktab nashriyoti.
9. Stanford Encyclopedia of Philosophy:
<https://plato.stanford.edu>: Aristotle’s Political Theory